O‘ZBEK ADIBI SHOKIR SULAYMON IJODIDA MILLIY FOLKLOR VA SHE’RIYATNING TUTGAN O‘RNI

Adilova Dilrabo Uchqunovna

Shayxontohur tumani

169-maktab ona tili va dabiyot fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asr o‘zbek she’riyati vakillaridan Shokir Sulaymonning hayoti, faoliyati va uning she’riyat hamda o‘zbek milliy folklori merosida tutgan o‘rni tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Qo‘qon adabiy muhiti, Abduvahob Ibodiy, “Ko‘mak” uyushmasi, milliy folklori, she’riyat, “Erk kuylari” she’riy to‘plami.

Shokir Sulaymon 1900-yilda Qo‘qon shahrida tug‘ilgan bo‘lib, uning otasi Sobirxo‘ja ilmli insonlardan bo‘lib, onasi Tiniqoy ham o‘qimishli oqila ayollardan bo‘lganligi ma’lum. Yosh Shokirning birinchi ustozi uning otasi Sobirxo‘ja bo‘lib, dastlabki ta’limni undan olib, keyingi ta’limni qo‘qonlik muallim Abduvahob Ibodiyning “Irfon” maktabida davom ettiradi. Abduvahob Ibodiy o‘z maktabida mukammal ta’lim tizimini ishlab chiqqan bo‘lib, ushbu maktabdagi tahsil shubhasiz yosh Shokirning hayotida muhim o‘rin tutdi.

Shokir Sulaymon 1922-yilda tuzilgan “Ko‘mak” uyushmasining ham faoliyatida faol ishtirok etdi hamda millat boylarini ushbu ezgu ishda faol qatnashishga da’vat etdi, o‘zining ko‘plab she’r va maqolalarida ushbu tashabbusni olqishladi. Jumladan, u “Turkiston” gazetasining 1923-yil 1-yanvar sonida chop etilgan “Ovro‘pada Turkiston o‘quvchilari” nomli maqolasida “Chetda o‘quvchi bolalarini yo‘qlab turg‘on boshqa millatlar kabi bizning Turkiston ziyolilari, maorifparvarlari ham o‘zlarining “jiyda xaltalari” bilan chetdagi o‘quvchilarini yo‘qlasalar, yordam etsalar yaxshi bo‘lur edi. Yurti, elidan uzoq turg‘on o‘quvchilar Turkistondan shuni kutalar. Shunday bo‘lsa, istipendiyasiz turg‘on yuzlab o‘quvchilarimizga bir oz madad bo‘lur edi. Yurtidagi kamchiliklarni ko‘rib, yuragi achinadurg‘on yoshlarimizning kundan-kun, yildan-yilga ko‘payishi lozimdir” deb yozdi. Bundan tashqari u Moskvadan turib Turkiston davriy matbuotida “Uchqun” nomli she’rini e’lon qilib, unda muallif Germaniyaga o‘qishga yuborilgan o‘quvchilarni uchqunga o‘xshatadi va bir kun kelib ular nur bo‘lib vatanga qaytgan holda jaholat, ilmsizlik soyasi ostida zulmatga cho‘mgan Turkiston zaminini yoritishiga umid bildiradi:

Chetda uchqun, chetda yolqin gurkirab kuchli yonar,
Yong‘on o‘t o‘chmas, biroq zo‘r yoqitliq, shu’la berar.
Qop-qorong‘i tilsimot, yo‘lsiz yobon sharq ustiga,
G‘arbdagi dard yolqini bir kun chiqib uchqun sochar…

Alohida qayd etish kerakki, Shokir Sulaymonning ijodiy merosi aynan ana shu talabalik yillarida gurkirab rivojlandi. Jumladan, u “Turkiston“, “Farg‘ona”, “Yangi Farg‘ona”, “Qizil bayroq” gazetalari hamda “Ma’orif va o‘qitg‘uvchi” kabi jurnal sahifalarida o‘zining ko‘plab maqola va she’rlari bilan ishtirok etdi. Shu bilan birga u “Erk kuylari”, “G‘alaba marshi”, “Yangi saroy”, “Davr hayqirig‘i”, “Ikki yo‘l”, “Saylanma”, “O‘tganlarni eslaganda”, “Surgun Sayfiy” nomli she’riy to‘plamlar hamda “Achchiq xotiralar”, “Kolxozda”, “Jama ham Hamo”, “Yosh ixtirochi”, “Sayohat”, “Hindistonda”, “Jim ham Ellen”, “Butun dunyoga sayohat”, “Yangi turmushda”, “Baxtli Halima”, “Podachi” Bizda ham ularda”, “Parij bolalari”, “Farmuza otasi” kabi nasriy asarlarni ijod etdi. Shokir Sulaymon tarjimon sifatida ham A. Mixaylovning “Spartak”, V. Biankining “Bu kimning oyoqlari”, “Kakku bolachasi”, “Qush qanday sayraydi” va shular kabi ko‘plab badiiy asarlarni o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi.

Shokir Sulaymonning Turkiston davriy matbuotida maqolalari ayniqsa o‘zining milliy ruhda ekanligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, uning “Farg‘ona” gazetasining 1923-yil 15-aprel sonida chop etilgan “Xalq adabiyoti”, huddi shu gazetaning 1923-yil 24-avgustda e’lon qilingan “Milliy kuy va ashulalarimiz” nomli maqolalari shular jumlasidandir. Shokir Sulaymon “Xalq adabiyoti” nomli maqolasida o‘zbek xalqining jonkuyar folklorshunos muhisi sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif ushbu maqolasida adabiyotni 1) Xalq adabiyoti va 2) Qalam adabiyoti kabi ikki qismga bo‘lib, ushbu ikki adabiyot turiga o‘z ta’riflarini bergan. Shokir Sulaymonning fikricha xalq adabiyoti bu xalqning o‘zidan – otadan bolaga, boladan o‘g‘ilga, og‘izdan og‘izga, bo‘g‘umdan bo‘g‘umga, quloq bilan eshitilib kelib, doim xalqning o‘zi bilan birga jonli tarixiy tarjimayi holi bo‘lib yetib keladigan adabiyotdir. Qadimgi hikoyat – ertak, afsona, topishmoqlar masal va maqollar, ashula va laparlar, bular xalq va yo og‘iz adabiyotidir deydi muallif. Qalam adabiyoti esa muharrirlar, shoir va adiblar tarafidan turli ustaliq nasr, nazm bilan yozilg‘on teatru, ro‘mon, qissa, hikoyat va boshqa turli tasviriy majmua asarlardirki, buning ham o‘qub foydalanguvchisi yana shu yozg‘uvchilar, o‘qish va yozishni bilgan savodli kishilar hisoblanadi. Shokir Sulaymon xalq adabiyoti haqida to‘xtalib “Muvarrixlar (tarixchilar – M. Alijonov) ko‘pincha o‘zlariga ochqich etib xalq adabiyotini oladurlar. Chunki, xalq adabiyoti shu xalqning ahvoli ruhiyasini, shu vaqtdagi zamon, muhit va dunyoga qarashini din, e’tiqod va kechirgan kunlarini hech bir yashirmasdan, qo‘rqmasdan ochib beradur. Ustidan xalq adabiyoti, xalqning borliq ahvoli ruhiyasin, chiroylik yomonligin ochub, tez ko‘rsatadurgan qiymatli oyinadir. Ko‘p vaqtlar qalam adabiyotidan xalq adabiyoti ustun yuradur. Xalqning ruhi, ozig‘i, borliq tilagi o‘z adabiyoti bilangina anglashadur. Shoirlar, adib va muharrirlar xalq adabiyotidek ochib avomfahm qilib, xalqning joniga yoqarlik qilib bera olmaydur. Hech bir narsasi ko‘zga ko‘rinmagan bechora o‘zbeklarning sonsiz, saxtsiz

yetishmagan ishlaridan – qatorda yo‘qolishga yetar darajada xalq adabiyoti turadur” deb yozadi. Shokir Sulaymon ushbu maqolasida milliy istiqlol qahramonlari to‘g‘risida kuylangan noyob xalq og‘zaki ijodi bo‘lmish she’rlardan ham na’munalar keltirgan:

Bek akamlar soy kechdi omon yor,
Shohi to‘nini yechdi omon yor,
Din va islom yo‘lida omon yor,
Aziz jonidan kechdi omon yor.

Yana:

Bu tog‘larda kim yotgan?
Askar bolalar yotgan;
Yonboshiga tosh botub,
Oxir hudoga yetgan.
Voyy o‘rtoqlar!
Do‘st jo‘ralar!
Bu dunyoning savdosi
Hammamizni hayron ayladi.

Shu bilan birga Shokir Sulaymonning she’riy merosi ham o‘ziga xos diqqat va e’tiborga loyiq ijod na’munalari bilan boyitilgandir. Qolaversa, Shokir Sulaymonning she’riyat xususidagi qarashlari ham ancha teran ma’nolarga ega hisoblanadi. Jumladan, u o‘zining “Erk kuylari” nomli she’riy kitobiga yozgan muqaddima maqolasida quyidagilarni ta’kidlagan: “Oktabrdan boshlab o‘zbek adabiyoti yangidan tug‘ildi va yangi bir davr tashkil qildi. Davrimiz chaqaloq, qadabiy maydonimiz hali kuchsizdir. Bu kungacha matbuotda javlon urgan she’riy quvvatlarimiz ma’lum bir izga tushib, ma’lum bir maktabning ko‘zga ko‘rinarlik chin yo‘lchisi bo‘lg‘on emas. U yog‘ini so‘rasangiz, yosh, qari adib va shoirlarimizning maydong‘a otg‘on asarlari: “O‘tkan kunlar”, “Ko‘zgi”, “Buloqlar”, “Umid uchqunlari”, “Uyg‘onish”, “Yer yulduzlari”, “Sezgilar” to‘g‘risida jiddiy bir tanqid taqdirda ko‘rilgan emas. Shunday bo‘lsa ham bu kungi adabiy sohamiz yo‘qsil kutubxonamizni gullatib yo‘qdan bor bo‘lib turg‘on “Uchqun”, “Tong sirlari”ni ko‘rib quvonamiz, shodlanamiz. Bozorg‘a qarab savdosin qizitib turg‘on nashriyotlarimiz, yosh qalamlarning ko‘kragi ko‘tarilishiga bel bog‘lab elimizni adabiy maydong‘a sudrab tanishtira, ozlashdira bormoqda. Shu tashabbusning o‘z kelgusi adabiy maydonimizning yuksalishiga katta bir garovdir. “Bor boricha – yo‘q yo‘g‘icha” deganday men ham yaqin o‘rtoqlarning so‘rashlari bo‘yincha, nashriyotimizning

yuksalish davri daldasida o‘zimning eskidan unda-bunda tashlanib qolg‘on narsalarimni to‘plab kengash ittifoqi holiqlarning markaz nashriyoti oldidag‘i o‘zbek seksiyasiga topshirishg‘a jur’at qildim. Attangkim, men siz o‘ylag‘oncha shoir, to‘plag‘on narsalarimda she’r emas. Yuraklarga ilhom berdirib, hislarni qo‘zg‘ataturg‘on, davriy turmushimizni gavdalantira – aks etaturg‘on she’riy quvvatlar bizda hali oz, barmoq bilan sanarliqdir. Yosh adabiy maydonimizning quruq nozim, havaskor kuchsiz sochmachilari qatorida men shu kichkina asarimni qo‘rqmay maydonga chiqardim”.

Shokir Sulaymonning “Erk kuylari” to‘plamiga kirgan she’rlar ichida ayniqsa “Sharq qizi” nomli she’r alohida ahmiyatga egadir. Shoir ushbu she’rida uyga qamalib faqatgina ro‘zg‘or ishlari bilan band bo‘lib qolgan Sharq (jumladan o‘zbek qizini ham) ozodlikka chiqqan holda, ilm shug‘ullanishga, dunyoni tanishga bir so‘z bilan aytganda “uyg‘onishga” da’vat qiladi:

Sharq qizi uhlaydir.

Keng sharqda sharq erinchiligi bilan,

Noz uyqusida rohatlanib, uzoq-uzoq uhlaydir.

Uhlaydirda, uhlaydir,

Uyg‘ong‘usi kelmaydir.

Tegrasini qora bulut qoplasada,

Qizg‘onmovchi yovlar bosh uchida o‘ynasada,

Bilmasdan, tushunmasdan, ko‘rmasdan,

Rohat, rohat uhlaydir.

– Uyg‘on, sharq qizi!

– Tong otdi!

Ma’lumki, Shokir Sulaymon bir muddat yurtdan olisroq bo‘lgan shahar Moskvada tahsil olgan, tabiiyki shoir qalbli bo‘lgan Shokir yurtini sog‘ingan ayniqsa vatanning bahorini. Uning bu sog‘inchi ayniqsa, “Bahor ko‘rinishlari” nomli sochma she’rida yaqqol ko‘rinadi. Jumladan shoir ushbu she’rida:

“Elimdan, yurtimdan uzoqda yolg‘izgina chet elning, yot yurtning yoqimli “bahor”in qarshi olmoqdaman.

Yosh yetgan erka qizdek go‘zal bahor.

Uning yoqimli muloyim shabbodalari, nurli quyoshi ko‘ngilda zo‘r o‘zgarish yasab, siniq ruhimni, jonlatira boshladi.

Qish bo‘yi, uzun qish bo‘yi tinkamga tekkan qora bulutlar, oppoq kafani bilan borliqni qoplagan yaltiroq – ko‘ngilli qorlar.

Kuchli qora bulutlar orasidan erkalanib, jilmayib qaragan quyoshning nuriga chidolmay, sekin-sekin tarqala boshladilar.

Quyosh, yorug‘ quyosh!

Seni ham ko‘rar kun bor ekanmu? Kel, chiqsang durustroq chiq.

Erkalanib yashirinma, yuz ko‘raylik, yorug‘ yuzingni sog‘inib o‘ldikk-u!

Bizdan nuringni, borlig‘ingni ayama! Oltun quyosh!” deb yozgan holda, vatanning bahori va yurt osmonida porlab turgan nurli quyosh hech qaysi yurtning “quyoshidek” isita olmasligini qattiq sog‘inch bilan tasvirlaydi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash mumkinki, Shokir Sulaymonning adabiy merosini chqur tadqiq etish, unga she’riyatning ilmiy tamoyillari asosida baho berish va eng muhimi shoirning she’riyatiga XX asr o‘zbek she’riyati kontekstida baho berish bugungi kunda hal etilmagan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

WORDLY KNOWLEDGE